

TONG yulduzi

N: 45
(66482)

2004 yil
8 noyabr - 14 noyabr

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

«Tong yulduzi»ga javob

BEKOBODDAGI 5-MAKTAB O'QUVCHILARINING 40 FOIZI «TONG YULDUZI»GA OBUNA BO'LISHDI!

Ha, shu kunlarda Bekobodagi 5-maktab o'quvchilari obunada birinchilar. Bunga ular qanday erishibdilar, deysizmi? Aynan shu maktabning 8-sinf o'quvchisi Munira Turdimatova maktabdoshlarini ushbu gazetaga obuna bo'lishga jalb qilib, buning uddasidan chiqibdi. Munira jamoat ishlarida ham faol ekan. U «Kamalak» tashkilotining sardori sifatida ish yuritib kelmoqda. Bundan tashqari Muniraning o'zi she'riyat gulshanining shaydosi.

Quyida uning she'rlari bilan tanishasiz.



TINCHLIK QUSHI

Tinchlik qushi shodlanib,
Charx urar osmonimda.
Ko'rmagaymiz aslo dog',
Gul unar bo'stonimda.

Quvna-yayrab bog'ingda,
Parvoz etar har kishi.
Osmoniga yarashiq,
Xumo qushi - baxt qushi.




DO'ST EMAS

Do'stman deya do'stini,
Tashlab ketgan do'st emas.
Ozor berib ko'nglini,
G'ashlab ketgan do'st emas.

Ulug'laylik azizlar,
Biz bir umr do'stlikni.
Asray biling har lahza,
Dildan asl do'stlikni.

«ONAMGA SUV KELTIRAY...»

Gazetaning 2004 yil 6-12 sentabr sonida chop etilgan «Onamga suv keltiray...» deb nomlangan maqola yuzasidan 20 sentabr kuni tuman hokimligi huzurida yigilish buldi. Unda mavzuga dahldor tashkilot, muassasa rahbarlari qatnashdi va bir ovozdan Gumbaz qishlog'ida yashovchi 1-guruh nogironi, voyaga yetmagan Dilorom Dehqonovaga nogironlik aravachasi olib berishga kelishildi, viloyat Mehnat aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasining maxsus hisob raqamiga tegishli pul mablag'i o'tkazildi.



Uchko'prik tumani hokimining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari:
Sh. ESONOV.

Qani, kimni yozay?

Aziz o'quvchilar! «Tong yulduzi»ga obunachilar soni asta-sekin ko'paymoqda. Tengdoshlaringiz, Yunusobod tumanidagi 274-maktab o'quvchilari ushbu gazetaga obuna bo'lib, tahririyatga o'z maqolalari va obuna to'lov varaqalarini yuboribdilar. Sizlar ham obuna to'lov varaqasini konvertga solib, tahririyatga yuborsangiz, antiqa sovg'a egasi bo'lishingiz mumkin. Barcha to'lov varaqalar yig'ilib bo'lgandan so'ng, bir maktabdan eng ko'p obuna bo'lganlar g'olib deb topiladi. Sovg'a 2005 yil yanvar oyida topshiriladi.

«BIR O'Q BILAN IKKI QUYON»

Maktabimizda «Nihol» to'garagining tashkil etilganligidan xabar topib, ularning ish faoliyatlari bilan qiziqib qoldim. To'garak a'zolarining maqola va she'rlarini o'qib, ochig'i havasim keldi. Eng yaxshi yozilgan she'r va maqolalar «Tong yulduzi»da e'lon qilinishini eshitib, ham to'garakka a'zo bo'ldim va «Tong yulduzi» gazetasiga bir yilga obuna bo'ldim.

Endi bir yil davomida ushbu gazetaning har sonini o'qib borish bilan birga, o'zim yozgan maqolalarni ham «Tong yulduzi»ga yuborishim mumkin.

Farruh QOSIMOV, 5-sinf o'quvchisi.

ENG YAXSHI GAZETA!

SEN ORQALI DO'STLASHAMAN



Bir kuni sinf rahbarimiz Nargiza opa yangi o'quv yiliga obuna boshlanganligini e'lon qilib qoldilar. Biz o'quvchilarning obuna bo'lishimiz mumkin bo'lgan gazeta va jurnallarning nomlarini sanay ketdilar. Gaplarining so'ngida: «Tong yulduzi» gazetasi yoshingizga mos bo'lgan nashr, qolaversa, unda siz kabi tengdoshlaringizning ijodlari muntazam yoritib boriladi. Maslahatim, o'zingizga yoqqan gazeta yoki jurnalga obuna bo'ling», dedilar.

Men 2005 yil uchun «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldim.

Ziyoda SUNNATOVA, 5-«V» sinf o'quvchisi.

BIR SABABI BOR

«Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishimning bir sababi bor. Qanday sabab ekan, deysizmi? Sinfidosh do'stlarimiz bilan darsdan tashqari turli bayramlarga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazishni yaxshi ko'ramiz. «Tong yulduzi» gazetasida esa ana shunday tadbirlar haqida keng ma'lumot berib boriladi. Gazetani o'qib, tengdoshlarimiz hayoti, ular o'tkazayotgan tadbirlar haqida tasavvurga ega bo'lib, o'zimiz ham bunday tadbirlar haqida gazeta orqali do'stlarimiz bilan fikr almashamiz.

Nurilla ABDULLAYEV, 5-sinf o'quvchisi.




Do'stlarim ko'p bo'lishini, shahar va viloyatlardagi tengdoshlarimning maktabdagi hayotlari bilan yaqindan tanishishni xohlayman. «Tong yulduzi» gazetasi bu borada menga yordam berishi mumkin. Buning uchun viloyatdagi va shahardagi qiziquvchan o'quvchilar o'z manzilgohlarini gazetaga yozib yuborsalar bo'lgani.

Sevimli gazetam «Tong yulduzi»! Tengdoshlarim manzilgohlarini sahifalaringda berib borsang. Sen orqali do'stlarim ko'payishini juda-juda istardim. Shuning uchun ham senga bir yilga obuna bo'ldim. Endi bir yil davomida mazza qilib sahifalaringni o'qiyman.


Salohiddin KAMOLOV.



E'tibor bergan bo'lsangiz,
274-maktabning o'g'il bolalari obuna bo'yicha faol ekanlar. Sizning maktabingizda ham shundaymi? Maktublaringizni kutib qolamiz.



AMERIKADA YOZILGAN IKKI O'ZBEKCHA HIKOYA




Ushbu sarlavhani ko'rib, hayron qolgandirsiz? Chindan ham hayron qoladigan hodisa. Axir amerikalik ikki talaba bor-yo'g'i ikki oyga yetar-yetmas til o'rganib, birdan... o'zbek tilida hikoya yozib yuborsa, yana u hikoyalar mazmunli va qiziqarli bo'lsa, g'aroyib hodisa desa arzigulik! Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Vashington universiteti talabalari shogirdlarimiz Stefan KAMOLA bilan Jakob SMIT ana shu o'zbek tilida yozilgan hikoyalarning mualliflari bo'ladilar...

Gapni sal yiroqroqdan boshlaymiz. Ma'lumki, Vashington universiteti Yaqin Sharq tillari va madaniyati fakultetida uzoq yillardan beri Yozgi O'zbek programmasi ish olib boradi. Programmaning raisi Vashington universiteti professori tinib-tinchimas Ilza Sirtautas xonim bo'ladilar. Ilza xonim jahonda nom qozongan turkshunos olimasi hisoblanadi. Unga O'zbekiston Milliy universiteti Faxriy doktori unvoni berilgan. Olimaning o'zbeklar madaniy hayotiga bag'ishlangan juda ko'p maqolalari e'lon qilingan.

Ilza xonimning o'zbek adabiyotidan qilgan tarjimalari ham diqqatga sazovor. U qir yettita o'zbek xalqi ertagini jamlab, olmon tiliga tarjima qildi. Ilza xonim she'riyatimizdan ham ayrim namunalar tarjima qilganlar. Ular orasida Cho'lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, shuningdek, kamina

she'rlaridan tarjimalari bor.

Professor Ilza xonim Sirtautasning sa'y-harakatlari bilan har yili Sietl shahrida Vashington universitetida Yozgi O'zbek programmasi faoliyat olib boradi. Unda o'zbek tili,



tarixi va madaniyati bilan qiziqqan talabau aspirantlar AQSHning turli shaharlaridan kelishib, mashg'ulotlarda ishtirok etadilar, o'zbek tilini o'rganish asnosida xalqimiz hayotining turli sohalari bilan tanishadilar. Qizig'i shundaki, ular til o'rganibgina qolmay,

balki xalqimiz urf-odatlarini, o'zbek tilida qo'shiq va she'rlar aytishni, latifalar so'zlashni, o'zbek adabiyotidan namunalarni tarjima qilishni o'rganadilar.

Vashington universitetining bu yilgi Yozgi O'zbek programmasi ishtirokchilari Stefan Kamola bilan Jakob Smit ham ana shunday talabalardan hisoblanadilar. Men bu shogirdlarimning o'zbek tilini o'rganishdagi g'arat-shijoatlarini ko'rib, juda havas qildim. Ularning qiziqishlari shu qadar baland edi-ki, hatto... bizlarni quvontirib, o'zbek tilida hikoyalar yozishga jur'at etdilar! Kim bilsin, vaqtlar kelib, bu shogirdlarim ustozlariga o'xshab o'zbek adabiyotining sodiq do'stlariga, targ'ibotchilariga, yetuk tarjimonlariga aylanishar?

Odamning ishongisi keladi...

Muhammad ALLI,
O'zbekiston xalq yozuvchisi.

BAYRAM KUNI

...Ertalab qo'zg'olib uyg'onib ketaman. Bugun bayram bo'lganligini yaxshi bilaman. Bayram dasturxonini tayyorlamaguncha zinadan tushsam,



onam meni koyiy boshlaydi. Indamasdan o'ynab, ko'rpam bilan peyzajmanzaralar qilaman. Unda tog'lar boshlarini bulutlarga cha cho'zadilar, bunda quturgan bir daryo dengizni qidirib oqadi... Yo'q, endi sabrim tugaydi - o'rnimdan sakrayman.

Otam hovlida bo'yalgan tuxumlarni yashirayotganligini bilaman. Uni ko'rish menga ta'qiqlangan edi. Onam oshxonada har xil shirin ovqatlarni

yong'oqli va qandli nonlar, meva-chevalar, shokoladlarni uzun stolga bir-bir terib qo'yib, choy damlaydi. O'choq yonida guldonda joylashgan majnuntolning shoxiga ichi olingan butun tuxum po'choqlari osig'liq.

Bular buvimning hunaridan dalolat beradi.

Bitta tuxumni tutib, ipida aylantirib-aylantirib qo'yib yuboraman.

Tuxum teskari aylanadi. Bir nechtasini shunday aylantirib chiqaman, uni tomosha qilishni yaxshi ko'raman.

Eshik oynasiga qarasam, ayvondagi ko'rpachada bobom va buvim yonmayon o'tirib, muloyim ovoz bilan nimalardir to'g'risida sirlashadilar. Buvimning tomirlari chiqqan, quruqshagan, yumshoq qo'llarida o'rilgan arqonlarday ishlangan kumush bilakuzuklar yarqiraydi. Chet elda tug'ilgan bu keksalarning menga notanish tilda gaplashishlariga qiziqaman.

Nihoyat, otam hovlidan kiradi. Akam uyg'onib, zinadan otilib chiqadi, hovlidan yashirilgan tuxumlarni qidira

boshlaymiz. Ayvon piromonida, hovuz yonidagi gullarda, daraxt ayrisida bo'yalgan tuxumlar ko'rinib turadi. Hovlining u boshidan bu boshiga chopib, chuvvos solib tuxumlarni yig'ib olamiz...

Dasturxon yozilgan. Hamma tuxumlar topilgan. Uyga qaytib kiramiz, stol atrofida o'tiramiz. To'rda o'tirgan bobom savatimdan ko'k tuxumni qo'lida tutib: -Ye, o'g'lim, qiliching qayerda? - deb so'raydi.

Kulaman, tuxum urishtirishni yaxshi ko'raman. Savatimni ko'rib, tuxumlarni bittalab olib, yaqindan tekshiraman. Kattagina oltinday sariq tuxum tanlayman, bobom yuziga qarayman. U lopetib tuxumimni urib sindiradi. Jahlim chiqadi.

-Tayyor emasman...- deyman shikoyat ohangida. Jahlimni tez unutaman, tezda singan tuxumni yeb qo'yaman.

-Yana savatimdan tuxum qidirib, bobom bilan yana urishtirmoqchiman. Tuxumni qattiq tutib, tez uraman. Yana bir marta yutaman, yana bir tuxumni yeyishga majburman. Ko'zlarimdan yosh to'kiladi. Shirin nonlardan yemoqchiman...

Jakob SMIT.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Shahrisabz atrofidagi cho'lda Cho'pon va yovuz Bo'ri yashar ekan. Ko'p cho'ponlarda k Shahrisabzdagi Cho'ponning qo'ylari ko'p ekan va ko'p bo'rilardek bu yovuz Bo'ri qorni hamisha och ekan.

Har haftada Bo'ri Cho'ponning qo'ylaridan eng semiz ikkitasini yeb ketar ekan. Shundan albatta, Cho'pon g'azab otiga minibdi. U Bo'riga xat yozib yuboribdi. Xatda shunday debdi:

«Cho'ponlik qila boshlaganimdan beri har haftada siz qo'ylarimdan ikkitasini o'ldirib ketasiz, bundan, oilam juda kambag'al bo'lib qoldi. Go'sht sizga kerakligini tushunaman, afsuski, qo'ylarim menga ham kerak. Ularning go'shti, suti va junisiz pul topa olmayman. Bu masalani hal qilish yo'lini topishimiz lozim. Bitta

Yovuz Bo'ri bir kuni taklifim bor edi. Balki, har haftada sizga bir kilo qo'y go'shti berarman. Javoban, siz qo'ylarimni o'ldirishni to'xtatishingiz kerak. Rozimisiz?..»

YOVUZ BO'RI

O'qib, jahli chiqib ketibdi. Bo'ri o'ziga-o'zi: «Mening ham oilam bor! Ularni ovqatlantirishim juda ham kerak. Ertaga bu Cho'pon bilan gaplashaman»,

debdi. Keyingi kun ertalab Bo'ri Cho'ponning uyiga boribdi. Bo'rini ko'rib, Cho'pon qo'rqib ketibdi. «Aziz do'stim, qo'rqmangiz! Gaplashaylik!», deb

aytibdi Bo'ri. U va Cho'pon o'tirib gaplasha boshlabdilar. «Taklifingiz menga yoqdi, ammo, menimcha, bundan

ham yaxshiroq fikr bor», deb aytibdi yovuz Bo'ri. «Mayli, bemaol tushuntirib beringiz...» «Cho'ponjonim, albatta tushuntirib beraman, yaxshilab tushuntirib beraman!», debdi bu aqli



Keyingi kun ertalab Bo'ri Cho'ponning uyiga boribdi. Bo'rini ko'rib, Cho'pon qo'rqib ketibdi. «Aziz do'stim, qo'rqmangiz! Gaplashaylik!», deb

Keyingi kun ertalab Bo'ri Cho'ponning uyiga boribdi. Bo'rini ko'rib, Cho'pon qo'rqib ketibdi. «Aziz do'stim, qo'rqmangiz! Gaplashaylik!», deb

Bo'ri shu lahza Cho'ponni o'ldirib, yeb qo'yibdi va... o'zi cho'ponga aylanib qolibdi. **Stefan KAMOLA.**

BOLALAR SPORTI

«DUNYONING TOMI»GA CHIQQAN O'ZBEK

Bolajonlar, Ximolay tog'idagi Everest cho'qqisini yaxshi bilsangiz kerak. Bu cho'qqi alpinistlar tilida dunyoning tomi deb yuritiladi.

Everest cho'qqisining balandligi naq 8848 metrdir. Aynan shu cho'qqida ming yillik muz so'qmoqlari hali ham mavjud. Bu cho'qqiga chiqish uchun har qanday sportchidagi dovyuraklikning o'zi kamlik qiladi. Chunki tarix

uchun ham chiqmoqchi bo'lgan alpinist o'zi bilan og'ir yuk xaltasiga qo'shib, quyidagi anjomlarni ko'tarib yurishi juda zarur:



- 1) Maxsus kislorod niqobi;
- 2) Havo to'ldirilgan ballon.

Shuncha balandlikka o'g'ir yuklarni ko'tarib chiqish shartmi, dey a hayratlanyapsizmi? Axir, dunyoni o'rganish odamzodning orzusi-ku!

cho'qqiga bizning hamyurtimiz angrenlik alpinizm bo'yicha xalqaro

sport ustasi Rustam Rajabov ham bor. Ha, Rustam akangiz yer yuzidagi eng baland tog' cho'qqisi Everestni zabt

etgan eng birinchi o'zbek sportchisidir.

Darvoqe, bu cho'qqi Xitoy va Nepal davlatlari chegarasiga joylashgan. Demak, dunyodagi ikkinchi eng baland cho'qqi qayerda ekanligini ham bilib olishimizga imkon yaraldi. Bu cho'qqi Kashmirdagi balandligi 8611 metrli cho'qqi Kadvin Austa cho'qqisidir.

Gazetamizning ushbu sonida odatdagidek BOLALAR SPORTIga keng o'rin berganmiz. O'qing, yurtimiz faxriga aylanish uchun hozirdan harakat qiling.




sahifasidan joy olgan bu cho'qqida umuman havo yetishmaydi. Shuning

Everest cho'qqisiga ming mashaqqatlar bilan chiqqanlar orasida



TO'PNI LITSEY OLIB BERADIMI?


Bugun sport shukuhi har bir dilga, har bir xonadonga kirib bordi. Maktablarda ham jismoniy tarbiya darslariga jon kirgandek... Bu holat otalarimizni ham xursand etmoqda. Chunki sport chinakam tarbiyachi-da. To'g'risi, bekorchilikdan ancha yiroqmiz. Ammo sport bilan shug'ullanishga vaqt topamiz. Afsuski, biz ta'lim olayotgan litseyda uch yildirki qurilishi tugatilmagan sport zali qarovsiz ahvolda yotibdi. Biz o'quvchilar esa sport zalimiz yo'qligidan jismoniy tarbiya darsini Milliy Universitetga qarashli maydonda o'tkazamiz. Lekin darslarimiz o'z vaqtida o'tkazilmaydi. Ora-chorada bo'lib qolgan darslarda ham basketbol va voleybol uchun esa koptoklar yetishmaydi. Ustozimizning aytishicha, to'pni litsey ma'muriyati olib berishi lozim ekan, ammo haligacha bu muammo hal bo'lgani yo'q.



Sportni o'rtoqlarim kabi jon-dilimdan sevganim uchun men «chilonzorchi taekvondo» klubiga qatnashaman. Bu yerdagi shart-sharoitlardan quvonaman. Qaniydi, bizning litseyimizda ham klubdagi kabi mashg'ulotlar muntazam olib borilsa... Jismoniy tarbiya darsini biz har yili yangi sport zalida o'tkazamiz deb xursand bo'lamiz. Ammo litseyni tugallash arafasida bo'lsak ham, tuya go'shti yegan sport zalimiz bitmayapti.

*Nasiba MO'TALIYEVA,
Sobir Rahimov tumanidagi
akademik litseyning
207-guruh o'quvchisi.*

QOSIMJONOVNING «RAQIBI» KIM?



Aziz bolajonlar, shu yili jahon shaxmat tojini Liviya poytaxti Tripoli shahrida bizning mashhur shaxmatchimiz qo'lga kiritganligini juda yaxshi bilasizlar. Bu yuksak martabaga erishishga Rustam akangiz sizdek beg'ubor damlaridayoq orzumand edi.


O'ziga, tajribasiga ishongan shaxmatchi endi kuchlilar bilan bemalol dona surisha boshladi. Rossiyalik Garri Kasparov bilan birinchi dona surganda biroz hayajonlangan Rustam, endi yurak to'la umid bilan kuchli raqib tomon astoydil intilmoqda. FIDE prezidenti kuni kecha jahon shaxmat muxlislariga 2005 yilning yanvar oyida buyuk shaxmatchimiz Dubayda bo'lib o'tadigan matchda Garri Kasparov bilan maydonga tushishini e'lon qildi.

Bu o'yinning ahamiyati shundaki, unda g'alaba qozongan grossmeyster mutloq jahon chempioni uchun kurashni davom ettiradi. Undan so'ng, bu shaxmatchilarga vengriyalik Peter Leko va rossiyalik Kramnik kabi dongdor shaxmatchilar raqib bo'lar ekan...

Oqlar boshlab, 2 yurishda mot.



Olimpiya halqalari



AKA-UKA FUTBOLCHILAR

Behzodjon millionlar o'yini bo'lgan futbolni juda yaxshi ko'radi. U hozirda Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 6-litsey maktabning 5-sinfida o'qiydi. Darsdan so'ng, bekorchi bolalarga hecham qo'shilmaydi. Rost gap, uning bo'sh vaqti ham futbol maydonida o'tadi. Ha, aytgandek, yosh futbolchi Behzodning akasi ham futbolchi. Uning ismi Doniyor.

Doniyorjon esa shu tumandagi 174-boshlang'ich sinflar maktabining 2-sinfida o'qiydi. Mana ikki yildirki, aka-uka Sirg'ali tumanidagi 17-Bolalar va o'smirlar sport maktabining mashg'ulotlariga faol qatnashib kelmoqda. Sport maktabining suv havzasi va futbol maydoni doimo bolalar bilan gavjum. O'z kasbining ustasi bo'lgan murabbiylar Odil va Qahramon aka har doim mashg'ulotlarda sportsevar bolalarni sehrlab olgandek, mashg'ulotlar o'tadilar. Mashg'ulotlar samarasi esa shogirdlarining kamolida bo'y cho'zmoqda.

Yaqinda sport maktabining bir guruh o'quvchilari Xorazm viloyatining Bog'ot tumanida safarda bo'ldilar. U yerdagi sport maktab-internatida Toshkent jamoasini Buxoro viloyati sport maktabi ishtirokchilari kutib oldilar. So'ng, futbol musobaqalari boshlanib ketdi. Musobaqada Behzod ham, Doniyor ham jamoaning boshqa ishtirokchilari kabi o'yinda g'olib bo'lish, raqib darvozasini ishg'ol etish, bir necha gol urishni ahd qilishgan edi. Xorazm elida bu istaklar bajo bo'ldi. Ular raqiblariga bu musobaqaga jiddiy va puxta tayyorgarlik ko'rganliklarini to'la namoyish etdilar. Buxoroliklar ham bo'sh kelmadilar. Murosasiz o'tgan bu uchrashuv yosh futbolchilar qalbidan chuqur o'rin oldi.

Faxr

NIMA UCHUN 5 HALQA?


Bolajonlar, nega aynan beshta, yana nima uchun besh xil rangda ekanligini bilasizmi?

BOBO YURTDAGI TANTANA

Milliy kurashimizning ming yillik tarixi bor. Buni ayniqsa, ajdodlari polvon o'tgan tengdoshlaringiz xuddi ertaklar kabi sevib tinglashadi. Bolajonlar, shu o'rinda kurash san'ati nima uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini bilib olsangiz, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Chunki sportning bu turi xalqimiz sog'lig'i, g'ururi va kuch-qudratining bebaho timsolidir. Yigitlarimizning epchil, jasur, mard, kuchli, mehnatsevar, vatanparvar qilib tarbiyalashda ham kurash tengi yo'q qadriyatlardan biri hisoblanadi. 30-31 oktabr kunlari Shahrisabzda o'tkazilgan yoshlar o'rtasidagi 3- jahon chempionati va belbog'li kurash bo'yicha 1- jahon chempionatida yurtimizning yosh polvonlari bilan bir qatorda dunyoning 32 davlatidan kelgan 150 nafarga yaqin kurashchilar ishtirok etdilar.

Shunisi diqqatga sazovorki, sportchilarning deyarli 70 foizi 18 yoshga to'lmagan yigit- qizlardir.

Shuningdek, bu yerda mamlakatimiz Prezidenti sovrini uchun mutloq vaznda Amir Temur xotirasiga bag'ishlangan 4- xalqaro turnir ham bo'lib o'tdi. Turnir g'olibi yurtimiz mash'ali Abdulla TANGRIYEVdir



Farg'onacha usulda polvonlar to'n kiyib, beliga belbog' bog'laydilar. To'n polvon tizzasidan o'n-o'n besh metr pastga tushib turadi. Polvonlar bir-birining belbog'idan ushlab, maydonda kuch sinashadilar. Bu usulda polvonlar ikki qo'li bilan o'z raqiblari belbog'idan, ikki biqinidan mahkam ushlaydilar-da, katta kuch bilan dast ko'tarib, oyog'ini yerdan uzib oladilar, so'ng aylantirib ohistalik bilan yerga tashlaydi. So'ngra, ikki kuragini bir daqiqa yerga tekkizib turadi. Kurashning farg'onacha usulida raqibini chalish, oyog'iga oyog'i bilan turtib, yiqitish mumkin emas.

Buxorocha usulda esa polvonlar pishiq matodan tikilgan kamzul kiyib, bellariga belbog' bog'lab, yalangoyoq kurashadilar. Polvonlar uchun tikilgan kamzul tizzadan to'rt enlik yuqorida bo'ladi, yengi qo'l tirsagidan biroz pastda turadi. Buxorocha usulda polvonlar belbog' ushlab kurashmaydilar. Ular raqiblarini oyog'idan chalib, yiqitishlari shart. Jumladan, surxondaryolik polvonlar oyoq bilan chalib yiqitishda «yonbosh», «ildirma», «o'rama», «to'g'anoq», «qoqma» kabi usullarni ishlatadilar.



BO'SM o'quvchilari poytaxtga g'olib bo'lib qaytdilar. Ular qo'lga kiritgan «Faxriy yorliq»da esa shunday so'zlar bor: «Xorazm viloyati, Bog'ot tuman sport maktab-internati ochiq birinchiligi futbol bo'yicha Respublika musobaqalarida 1993-1997 yilda tug'ilgan bolalar o'rtasida faxriy birinchi o'rinni egallagani uchun Toshkent jamoasi «Faxriy yorliq» bilan mukofotlandi». Bu mukofot quvonchi jamoa a'zolarini yangi-yangi g'alabalar sari chorlab, kuch-quvvat baxsh etdi.

Ushbu o'rtoqlik uchrashuvidan so'ng, aka-uka futbolchilar yanada mashg'ulotlarga zo'r bermoqdalar. Ular yurtimizning mashhur futbolchilari Mirjalol Qosimov, Igor Shkvinin, Baxtiyor Ashurmatov va Zayniddin Tojiyevdek bo'lishga astoydil intilmoqdalar. Xalqimizda yaxshiga ergashsang, murodga yetasan, degan gap bor. Behzod va Doniyor tinimsiz mehnat qilib, o'z mahoratlarini oshirib, chiniqish kerakligini yaxshi bilishadi. Bo'lajak futbolchilardan maktab jamoasi, otanasi Baxtiyor aka va Zulfiya opa ham mamnun. Chunki farzandlari to'g'ri yo'l tanlab, futbolga mehr qo'yidilar.

Bugun bo'lajak futbolchilar oilasida katta quvonch shodiyonasi. To'kin dasturxon atrofida g'alaba sururidan xursand bo'lgan aka- ukalar Xivaning qadimiy yodgorliklari haqida jo'shib hikoya qilmoqdalar.

Sog'lom muhit hayotni, umrni go'zallashtiradi, deb shuni aytasalar kerak-da.

Muhabbat TUROBOVA.



Onalar hajvi

YANA MOSHXO'RDA

Bolalarim ta'biga qarab,
Tayyorlayman suygan taomin.
Ba'zan qiyin kunlar izmida,
Bilib oldim ro'zg'or maromin.

Kunaro goh moshxo'rda qilsam,
Lab burishar: «Yana moshxo'rda»,
Yeyishsin deb tutaman qoshiq,
-Olinglar-chi, moshxo'rda zo'r-da.

Ular esa ko'nikmas sira,
Kezar go'yo taom bog'ini.
Bolalarim qayerdan bilsin,
Ro'zg'orimning bor-u yo'g'ini.

Shunda sekin alday boshlayman,
Moshxo'rda- bu aql charxlaydi,
Kim ko'p yesa bunday taomni,
Boshi juda yaxshi ishlaydi.

Ishtahasi ochilib birdan,
Yeyishadi bo'lib betoqat,
Oqil bo'lish vasvasasida,
Men uchun ham qolmaydi ovqat.

Ma'mura MADRAHIMOVA.

SHIFOKORDAN
KEYINGI «SHIFOKOR»

O'lim to'shagida yotgan mashhur nemis shifokori Gufeland:

-Mendan so'ng hayotda uch shifokor qoladi, deb aytdi shogirdlariga.

-Kim ekan u shifokorlar? - deb qiziqib so'rashdi hamkasblari.

-Suv, badantarbiya va parhez,-javob berdi Gufeland.

Bu o'yinda 6 bola ishtirok etadi. Ulardan biri kuzatuvchi bo'ladi. O'yinda 10-14 yoshdagi bolalar qatnashishi mumkin. Bu o'yin uchun albatta

Milliy o'yinlarimiz

boshlanadi, uchta bola bir tomonda, ikkita bola bir tomonda turadi. Kuzatuvchi chekkada bo'ladi. Xuddi basketbolga o'xshab ketadigan bu o'yin qo'l

«MEN KELDIM»

bittagina ro'molcha bo'lishi kerak. Uning ichiga yumshoq narsa solinadi, mahkamlab tugiladi, tugunning kattaligi voleybol koptogidek yoki undan kichikroq bo'lishi kerak. O'yin

bilan o'ynaladi. Tugun uchta bola bir tomonda bo'ladi, ikkita boladan biri tugunni tortib olish uchun yaqinlashib keladi. Tuguni bor bola uni o'rtog'iga oshiradi. Agar tugun raqibining qo'lga tushib qolsa, u epchillik bilan uni o'yin boshiga eltib beradi va: «Men keldim!», deb qichqiradi. O'yin shunday davom etaveradi. Tugunni oldirib qo'ygan bola o'yindan chiqib ketadi, o'rniga boshqa chaqqon bola kiradi. Bu o'yin tekis maysa yoki qumloq yerda o'tkazilsa, yaxshiroq bo'ladi.



SPORT TEST

1. Diyorimizda milliy kurashning necha xil turi mavjud?

- A) Andijoncha;
B) Farg'onacha;
V) Xorazmcha;
G) Buxorocha;
D) Namanganacha.

2. Yurtimizda kamol topgan va o'zbek xalqi nomini dunyoga mashhur qilgan afsonaviy pahlavon nomi?

- A) Ahmad polvon;
B) Pahlavon Mahmud;
V) Jaloliddin;
G) Mulla O'sar polvon;
D) Ali polvon.

3. Respublikamizda mashhur polvonlar vatani qaysi shahar?

- A) Qo'qon;
B) Buxoro;
V) Termiz;
G) Samarqand;
D) Andijon.

4. Milliy kurash san'atining necha ming yillik tarixi bor?

- A) Ming yillik;
B) Uch yuz ming yillik;
V) Yuz yillik;
G) Ikki ming yillik.

5. Har bir xalqning o'z nomi, kurash qoidasi bor. Ana shu kurashlar orasida necha turi dunyoga mashhur?

- A) Erkin kurash;
B) Yunon kurashi;
V) Dzyudo;
G) Sambo;
D) Qo'l jangi.

SPORTGA MABLAG' AJRATGAN TADBIRKOR

Qarshida tadbirkor O'tkir Erkayev nomini hamma biladi. Chunki bu sahovatli inson o'z hisobidan yuz millionlab mablag' sarflab, yoshlarga sport majmuasi qurib berdi.

Muhtasham Qarshi choyxonasidan biroz o'tib, Qamashi ko'chasiga burilar ekansiz, bolalarning shodon qiyqiriqlari eshitiladi. «Gulshan» mahallasidagi 2,5 gektarga joylashgan ko'rkam inshootni ko'rib, yaqindagina bu yerlar tashlandiq axlatxona bo'lib yotganiga ishingingiz kelmaydi.


Mahalla oqsoqoli Shukrilla Safarov, bu joyni O'tkirjon obod qilaman deganida, quvonib, mahalladoshlariga yetkazdi. Hamma bajon-u dil rozi

bo'ldi. Tez kunda ishlar boshlanib ketdi. Dastlab, shahar hokimi qarori bilan bu yerlar bolajonlar uchun ajratib berildi. 90 mln. so'mlik loyiha ishlari tuzilib, hamma ishga kirishdi. 2004 yil 1 iyun kuni bolajonlar uchun qo'shaloq bayramga aylandi. Tantana faqat «Gulshan» mahallasida emas, balki butun Qarshi viloyati bo'ylab taraldi. Viloyat hokimi Nuriddin Zayniyev va poytaxt

mehmonlari sahovatli insonning tashabbusini joylarda targ'ib qilish kerak, deb aytishdi. Chindan ham, bo'sh yerlarda sport bilan shugullanish uchun sharoit yaratganlar ertangi sog'lom insonlar uchun qayg'urgan bo'ladi-dar-da.

Zamira TO'LAGANOVA.






Kecha poytaxtimizdagi «Umid» bolalar sport majmuasida 1991, 1992 va 1993 yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida stol tennisi bo'yicha I respublika turniriga start berildi. Ushbu musobaqa «Sog'lom avlod uchun» dasturi asosida tashkillashtirilmoqda.

«UMID» DA YOSH TENNISCHILAR

Bellashuvlarda

Toshkent shahri hamda viloyatlardan tashrif buyurgan 56 nafar yosh raketka ustalari g'oliblik uchun to'rt kun davomida kurash olib borishadi. 4 noyabr kuni turnirning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi va unda bolalarning sevimli guruhi hisoblangan «Sevinch» dastasi o'z chiqishlari bilan musobaqa qatnashchilarini xushnud etishdi. Shundan so'ng, yosh o'g'il va qizlar yig'ilganlarga ko'rgazmali dasturlarini namoyish etishdi. Eng qiziqarlisi, turnirda mamalaktimizning stol tennisi bo'yicha yetakchi sportchisi Saida Burxonxo'jayevaning singlisi Nodira ham qatnashmoqda. Dastlabki kungida bahslarda davomida Nodira opasi singari yuksak mahorat egasi ekanligini barchaga namoyish qildi.



stol tennisi bo'yicha yetakchi sportchisi Saida Burxonxo'jayevaning singlisi Nodira ham qatnashmoqda. Dastlabki kungida bahslarda davomida Nodira opasi singari yuksak mahorat egasi ekanligini barchaga namoyish qildi.

KOMPYUTER «KASALLIGI»

Bizning akademik litseyimiz joylashgan Beruniy metrosi yaqinida «Internet» kafesi bor. Xuddi maktab singari bu yer nihoyatda gavjum desam ishonaverim. Maktab o'quvchilaridan tortib, talabalargacha shu kafeni muqaddas bilishadi. Nega deysizmi, chunki bu yerda ertadan-kechgacha kompyuterda turli o'yinlarni xohlagancha ermak qilish mumkin. Ba'zida tanishlarimning g'ururlanib, men u kinoni ko'rdim, bu o'yinni o'ynadim, kompyuter g'aroyib narsa-da, degan gaplarini eshitaman. Nahotki, bu mashg'ulotlar shunchalik zavqli-yu, kundalik darslar zerikarli bo'lsa? Bu bekorxo'jalarning ota-onalariga ham hayronsan, nahotki farzandim kuni bo'yi nima ish qilib yurgani bilan qiziqishmasa, ularga aytgan pulini beraversa... Axir barcha kompyuter xonalari pullik-ku... Adham, Sobir kabi tengdoshlarimga nimaga har kuni darslarga kirmasdan, kompyuter o'yinlariga borasan, desam, biz «kompyuter kasali»ga chalinganmiz, deyishdi.

Bu «xafvli kasallik»ni tezroq oldi olinmasa, boshqalarga ham «yug'ib» qolishi tayin.

Nuriddin
SAYFULLO
o'g'li.



Nodirjon deganimiz endigina 6 yoshga qadam qo'ydi. Uning jussasi juda kichik-u, xatti-harakatlari kattalarnikidek uddaburon. Onasining erkatoyi, dadasining umidi, akasining sherigi... Bu jajji sportchining mehribon onasi Donoxon opa o'g'li haqida shunday deydi:

-Mening ikki nafar o'g'lim bor. Zokirjon va Nodirjon. Ikkisi ham sportning karate turiga qatnashadi. Ona uchun farzandi kamolini ko'rish katta baxt. Buning uchun ularni bolalikdan shakllantirib borishimiz kerak. Bolalikning beg'ubor ko'chalaridagi orzulariga monand hayotni biz



kattalar yaratamiz-da.

Nodirjonni kim ko'rsa, bunchayam kichkina ekan o'g'lingiz, deydi. Rost gap, bunday gap-so'zlardan biroz

xafa bo'lib ketaman. Bir kuni Nodirjonga, yur, seni sport maskaniga olib boraman, nega kichiksan, deganlarni bir uyaltirib, pahlavon yigit bo'lib ketgin, dedim. Va «JAR»ga olib keldim. Bizlarni

Doniyorjon degan murabbiy tabassum bilan kutib oldi. To'g'risi, mening erkatoyi o'g'lim ko'pchilik bilan gaplashganda juda tortinchoq bo'lib oladi. O'shanda zal to'la bolalarni ko'rib, begonasiramay qolgan o'g'limga qarab, murabbiy hali o'g'lingizdan xursand bo'lasiz, chunki uni bizga erta olib kelibsiz, dedi.

Shu kundan boshlab, biz mashg'ulotlarga muntazam qatnay boshladik. Mana shunga ham bir yil bo'layapti. Karatening shotakan turi bilan shug'ullanayotgan bolalarning quvonchini ko'rib, o'g'limni bu yerga keltirganimdan xursand bo'lib qo'yaman.

Ha, bizning jajji sportchimiz murabbiy ishontirganidek, oyijonisini xursand qilmoqda.

Darrov chempion bo'lib-a, deya xulosa qilyapsizmi? Aslo unday emas. Nodirjon va uning o'rtoqlari hali musobaqalarga biror martayam qatnashganlari yo'q. Sababi, ularning



mashg'ulotlari endigina chiniqish va usullar o'rganishdan iborat. Ammo uning fe'l-atvorida chiroyli muomala, shuningdek, o'zini erkin tutish holati paydo bo'ldi.

Nodirjon Nig'matillayevga kelajakda kim bo'lasan, deb so'rasangiz, murabbiyimdek zo'r karatechi, deb javob qaytaradi. Sport degani nima ekan, desangiz, bu sog'lomlik, qo'rqmaslik va dovyuraklik, deydi.

Aziz bolajonlar, sizlar ham oyijoningizga meni ham erinmasdan sport zaliga olib boring, deb ko'ring. Ular bajon-u dil xo'p deyishadi. Axir qaysi ona farzandining sog'lom va baquvvat bo'lib, yurt sha'nini oqlab yurishini istamaydi, deysiz?

Xurshida BOYMIRZAEVA.

TILGA E'TIBOR - ELGA E'TIBOR

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 20-o'rta maktabda til bayramiga bag'ishlangan qiziqarli tadbir va ochiq darslar bo'lib o'tdi. Ta'lim maskanining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dono opa Nabiyevaning olib borgan ochiq dars soatlarida sevimli adibimiz Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi to'laqonli yoritildi. Uning «Bemor» hikoyasi o'quvchilarning tomonidan sahnalashtirildi. Ular sahnada hikoyada ishlatilgan «Osmon yiroq, yer qattiq», «Yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi», «Pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi» kabi iboralar mazmun mohiyatini chuqur idrok etganlarini namoyish etdilar. Ushbu asar yaratilgan davr va hozirgi zamon past-balandliklari o'quvchilar tomonidan qizg'in bahsmunozaralarga aylanib ketdi. Ochiq darsga qo'yilgan ko'rgazmali o'quv qurollarining barchasini o'quvchilarning o'zlari tayyorlashdi.

Nafisa HAYDAROVA,
TDPU talabasi.

Shayxontohur tumanidagi Malik Majidov nomli 82-o'rta maktabda ham o'quvchilarning faolligini oshirish, dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida turli xil tadbirlar va tarbiyaviy soatlar tez-tez uyushtirib turiladi. Maktabning ma'rifiy va ma'naviy ishlar bo'yicha muovini Nig'mat aka Mirzohidov yoshlarni kelajakka ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalashda o'zining



beminnat hissasini qo'shmoqda. Maktabda bo'lib o'tgan «Tilga e'tibor - elga e'tibor» shiori ostidagi tadbirning kirish qismini Mirzohidov Nig'mat aka tayyorlagan. Unda o'z ona tilimizni unutmasligimiz lozimligi takror va takror uqtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat

madhiyasi bilan boshlanib, mumtoz adabiyotning yirik namoyondalari bo'lmish Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiylarning bizga meros qilib qoldirgan durdona asarlari asosida olib borilgan tadbir o'quvchilar olamida yangi dunyo kasb etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. 7-sinflar orasida «Kamolot» Yo'la'zosi, tashkiliy ishlar bo'yicha sardor Doniyor Obidov hamda Ziyodilla Nurahmedovlarning chiqishlari kelajagimiz ma'naviyatli o'quvchilar bilan porloq bo'lishiga ishonchdir.

Gavhar SHOMANSUROVA.

Sahifalarni
Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi.

ILM AFZAL

Maktab sahnasi uchun

Boshlovchi:

-Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda, Buxorodan uzoqda, Urganch cho'li etagida, Qal'ayi Mirishkor degan qishloqda bir qariya yashagan ekan. Chol o'zim omiligimcha qoldim, qani endi o'g'illarim o'qib odam bo'lsa, deb orzu qilarkan. Boboning sakkiz o'g'li va bir qizi bor ekan. Qizi aqlli, sezgir ekan.

Sahna. Parda ochiladi. Uzoqdan tog'lar ko'rinib turadi. Tog' etagiga joylashgan uy. Uyda ota qizi bilan suhbatlashib o'tiribdi.

Ota: -Xudo umringni uzoq qilsin. Qarigan chog'imda senday farzandli bo'ldim. Lekin akalarim meni kuydiryapti. Ularning mehnat qilishga bo'yni yor bermaydi. O'qib, ilm olib, odam bo'linglar desam, gapimga quloq solishmaydi. «Shuncha molimiz bor, o'qib nima qilamiz», deyishadi. Men qarib qoldim, bu dunyodan ko'z yumsam, akalarimning holi nima bo'ladi? Ishqilib, vafotimdan so'ng mening nomimga dog' tushirmasinlar-da.

Qiz: - Otajon, sizga bir gap aytayin. Akalarimni yoningizga chaqiring. Keyin ulardan qilib yurgan ishlarini so'rang.

Ota: -Ey jonim qizim, ularning qilib yurgan ishlarini bilaman. Sakkiz akang cho'ntaklarini pulga to'ldirib, sakkizta chopqir otga minib, shaharma-shahar kayfu safo qilib yurganlari-yurgan.

Qiz: -Bularni bilaman, otajon, akalarimni huzuringizga chaqiraylik. Men eshikning orqasida turaman. Siz ulardan «Ilm afzalmi, davlat afzalmi?» deb so'rang. Hammasining javobini eshitib bo'lgach, meni chaqiring. Menga ham akalarimga bergan savolni bering. Aqlim yetganicha javob beraman.

Ota: -Barakallo qizim. Umringdan baraka top. Omin, doim olganing oltin bo'lsin. Aslo kam bo'lmagin.

Sahna qorong'ulashadi.

Oqshom tushadi. Chol o'g'illarini o'z huzuriga chorlaydi.

Birinchi o'g'il: -Otam bizga mol-mulkini bo'lib bermog'chi shekilli, a, uka?

Ikkinchi o'g'il: -Koshkiydi. Hammamiz mazza qilib yurardik.

Hamma o'g'illar mehmonxonaga to'shalgan ko'rpachalarga o'tiradilar. Otasining og'ziga tikilib jim qoladilar.

Ota: -O'g'illarim, sizlarni yedirdim, kiyintirdim, birovdan kam qilmay voyaga yetkazdim. Mendan keyin ro'zg'or tashvishi boshingizga tushadi. O'qib, ilm olinglar. O'ylab ko'rsam, ilm bilan hunarda gap ko'p ekan. Qani, to'ng'ich o'g'lim, sen kattamsan. Rejang qanday? Ilm yaxshimi yoki davlat?

O'g'illar o'yga toladilar. Katta o'g'il biroz o'ylab turadi.

Katta o'g'il: -E, ota, qiziq gaplarni aytasiz-da. Xudoga shukr, siz borsiz. Yerimiz, mol-mulkimiz bor. O'qib nima qilaman?

Bu gapni eshitgan ota xafa bo'lib, ikkinchi o'g'liga yuzlandi.

Ota: -O'g'lim, sen asl inson bo'lasan deb o'ylovdim. Sen ham ot minib bir necha kunlab yo'qolib ketasan. Bu yo'lingdan qayt! Men qari holim bilan q a c h o n g a c h a ishlayman? Menga yordam ber. Qani, sen ayt-chi, ilm zo'rmi yoki davlatmi?

Ikkinchi o'g'il: - (Aka-ukalariga qarab olib.) Ollo taolodan tilaymanki, otam doimo sog'-salomat yursinlar. Soyayi davlatlarida yigitlik davrini suraylik. Pulu mol bo'lmasa ilmdan nima foyda?

Ota: (xo'rsinib) -Eh, o'g'lim, savolingga javob berolmading. Sen-chi, sen nima deysan?

Uchinchi o'g'il: -E, otajon, gapingizga tushundim. Lekin bu to'rt kunlik dunyoda yegan-ichganingiz, kiyganingiz qoladi. Endi katta bo'lib qoldik. Shu yoshimizda ilm olgan bilan qayoqqa boramiz? Hamma davlatingiz bo'lsa, sizni hurmat qiladi, xizmatigizni bajo qiladi. Davlat yaxshilik-da, ota.

Ota: -Oh, afsus. (To'rtinchi o'g'ilga yuzlanib). -Qani, o'g'lim, nima deysan? Sendan biron yaxshi javob eshitarmikinman?

To'rtinchi o'g'il: - Mana, siz o'qimagsiz. Lekin mol-mulkingiz ziyoda. Doimo hurmat va izzatdasiz. Savolingizga kelsak, davlat yaxshi. Qo'lingiz uzun bo'ladi, qayerga uzatsangiz, yetadi.

Ota: (Xafa bo'lib va jahli chiqib). - Qani endi sen gapirgin-chi. Yoshligingda k o' p

kasal bo'larding. Tabibga - jarrohlarga ko'rsatganman. Onang rahmatlik kechalari mijja qoqmay tepangda o'tirib chiqardi. Inson bolasi o'lmasa, odam bo'lib ketarkan. Mana, yigit bo'lib qolding. Aytgin-chi, ilm zo'rmi yoki davlatmi?

Aziz bolalar, tengdoshingiz Mehrinozni yaxshi taniysiz. Uning she'riy kitobchasi gazetamiz orqali qo'lingizga yetib borgan. Mehrinoz yana ikkita kitob chiqardi. Endi esa o'zbek xalq ertaklari asosida sahna asarlari yaratishga kirishib ketgan. Uning intilishlariga omad tilab, sizga ijod mahsulini havola qilamiz.



Beshinchi o'g'il: -Men ilmni bilmayman. Shuning uchun davlat afzal. Chunki davlatingiz bo'lmasa, boy bo'lmaysiz.

Ota: -Sen nima deysan?

Oltinchi o'g'il: -Ilm deganingiz qo'lga olinmaydi, cho'ntagingizga pul bo'lib kirmaydi. Ilm bilan qorningiz to'q, ustingiz but bo'lmaydi. Men ham davlat afzal deyman.

Ota: -Bolam, sen ham davlatga o'ch ekansan. Qani, kenja o'g'lim, sen aytgin-chi, sen nima deysan?

Kenja o'g'il: (talmovsirab g'udurlaydi)...

Ota: -Qani, kenjam umidim sendan. Shoyad savolingga sen to'g'ri javob bersang. Kenja o'g'il aqlli bo'ladi, deyдилar. To'leing baland bo'lsin, ikki dunyoda xor-zor bo'lma aslo. Ha, otaning duosi tillo, lekin qarg'ishi yomon. Davlat afzalmi yoki ilm?

Kenja o'g'il: -Otajon, men ilm afzal deyman. Meni maktabga bering, o'qiyman. Ko'zingiz ochiqligida ilmli bo'lib olay. Baribir molu mulk, davlat menga tegmaydi.

Ota: (Dimog'i chog' bo'lib) - Barakalla, o'g'lim (peshonasidan o'padi). Menga mol-davlat tegmaydi, deganing nimasi?

Shu payt eshik orqasidan bekinib turgan qizi chiqadi.

Qiz: -E, qiblagohim, menga ruxsat bering, agar hurmatsizlik bo'lmasa, navbat m e n i k i . Savolingizga javob berayin.

Aka-ukalar bir-biriga qarab qoladilar. Mo'y safid xursand bo'ladi.

Ota: -Qani, qizalog'im, senga navbat. Gapir. Sen bu savolga nima deb javob berasan?

Qiz: -Otajon, kenja akam savolingizga to'g'ri javob berdi. Lekin ilmning afzalligini ayta olmadi. Negaki kichik akalarim kattalariga taqlid qiladilar. Yaqinda katta akalarim otamdan so'ng mol-mulkni bo'lib olamiz, kichik ukamizga hech narsa bermaymiz, deganlar. Shuning uchun ukam bu gapni eshitib, menga molu mulk tegmas ekan, o'qib bir kunimni ko'rarman, deb o'ylab, ilm afzal deb to'g'ri aytyapti. Davlat bebaho narsa. Ammo bugun bor, ertaga yo'q bo'lib ketadi. Agar kuningiz bitsa, akalarim davlat talashib, narsalarimizni talon-taroj qilishadi. Akalarimning yettovi davlat zo'r deyishdi. Bu noto'g'ri. Men ilm afzal deyman.

Akalarim shuni eshitib olsinlarki, ilmni qancha sarflasang, shuncha ko'payadi. Davlatni sarflasang, u tobora kamayib boraveradi. Ikkinchidan, ilmli odam shirinsuxan, odobli bo'ladi. Davlatli odamga hamma hasad qiladi. Uchinchidan, ilmli odam dunyodan o'tsa, essiz, falonchi olimdan ajraldik, deb afsuslanib yig'laydilar. Davlatmand odam o'tsa, olim odam edi, deyishmaydi...

To'rtinchidan, olim odam dunyoda doim farog'atda yashaydi. Chunki uning boyligi - ilmni hech kim o'g'irlab ketolmaydi. Davlatmand odam doimo, «molimni o'g'ri urib ketmasin», deb tahlikada yashaydi. Beshinchisi, ilm eskirmaydi, chirimaydi, nobud bo'lmaydi. Lekin mol-mulkni zah yerga qo'ysang chirydi, o'tobda rangi o'chib sitilib ketadi, sovuqda qotadi, issiqda kuyadi. Oltinchisi, ilmli odam yumshoq ko'ngil, shirinsuxan, xushchaqchaq, odamshavanda bo'ladi. Uni hamma hurmat qiladi. Hmsiz, davlatga berilgan odamning ko'ngli toshday qattiq bo'ladi. Qo'l ostidagi kishilar ko'proq ishlasin, davlatim ko'paysin, deb ularga zulm qiladi.

Eh, otajon, akajonlarim yaxshilab eshitib olsinlar. Yoshlik davrlarini zoye o'tkazish o'rniga ilm olishsin. Oxirgi pushaymon, o'zlariga dushman bo'ladi.

O'g'illar: -Ofarin! Ofarin! Endi albatta ilm egallaymiz, halol mehnat qilamiz. Singlimiz gaplari ko'zlarimizni ochib yubordi.

Ota: -Kenja o'g'il va qizim, senlar ertadan boshlab maktabga boringlar. Ilm o'rganinglar. Zero, olim bo'lsang, olam seniki, deb bejiz aytmaganlar. Qolganlaringiz ham ilm olishga kirishinglar, bolalarim. Kasb ham, hunar ham hammasi ilm. Dehqonchilik ham, bog'bonlik ham, chilangaru zargarlik ham, shifokorlik ham- barcha-barchasi ilm. «Yigit kishiga yetmish hunar oz», deya xalqimiz bejiz aytmaydi. Aziz bolalarim. Sizlarga ilm olishga oq yo'l bo'lsin, omin.

Mehrinoz ALIYEVA.

TENGDOISHINGIZ KITABI HAQIDA SO'Z

She'r yurakda tug'iladi, yurakda ulg'ayadi. Shuning uchun ham go'zal va samimiy. Gulnozaning she'rlarini o'qigan kishi bunga yana bir bor amin bo'ladi. U hali ancha yosh bo'lishiga qaramasdan hayotni anglashga harakat qiladi.

Mehringni ayama do'stingdan har dam, Yaxshi-yomonmi ko'r, fikr qil, odam. Iymonga jo qilgin, muslim, amaling, Qismatim qo'ling, ey oliy hakam.

Gulnozaning yaqindagina «Orzular qanotida» nomli ilk kitobi bosmadan chiqdi. Ushbu kitobga jamlangan she'rlar yaxshilik, ezigulik nurlari ila sug'orilgan. Gulnoza turli mavzularda o'ziga xos tashbeh-manzaralar yaratadi. Jumalari ham ravon. Pokiza hislar bilan yo'g'rilgan. Xullas, ushbu to'plamga jamlangan hayotga tashna yurakdan to'kilgan ash'orlar o'quvchini befarq qoldirmaydi. Biz esa bu yo'lda Gulnozaga ijodiy zafarlar tilaymiz.

Faxriddin HAYIT.



SHAHNOZANING ORZUSI



Tengdoshingiz Shahnoza Denov tumanidagi O'zbekiston shirkat xo'jaligida istiqomat qiladi. Shuning uchunmi, keng dalalar, mehnat mahsuli-oppoq paxtalar, shig'il meva tutadigan bog'lar - uning qo'liga qalam tutqazadi. Tinchlikda, omonlikda shunday ajib she'rlar yozish kerakki, uning hayajonlari boshqalarga ham yuqsin. Shahnozaning orzusi shunday.

UKAJONIM

So'zlaridan bol tomar,
Tillari-chi, asal, qand.
Mening erkatoj ukam,
Doim o'yin bilan band.
Ketar chog'i bog'chaga,
Xayrlashar biz bilan.
Kun botganda salom deb,
Qaytar yorug' yuz bilan.
O'zi kichik bo'lsa ham,
Zehni-chi, o'tkir juda.
Goh she'r o'qir, gohida,
Qo'shiqlari avjida.
Dadamning erkatoji,
Bizning ovunchog'imiz.
Ayamning shirintoyi,
Ukajonim, ko'zmunchoq'im.

Shahnoza TURSUNOVA,

Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 72-maktab o'quvchisi.

OQ PAXTA

Oq paxta, oppoq paxta,
Ochilibsan bunchalar.
Dalamga boqqan sayin,
Ko'z qamashar shunchalar.
Etaklarim to'ladi,
Bir nafasda, bir onda.
Sinfidoshlar horma der,
Do'st, dugonam har yonda.
Paxtamiz - boyligimiz,
Vatanimiz shuhrati.
Mening ham hissam bordir,
Shudir Shahnoza baxti.

Qish kelmoqda, bo'sh o'tirmay bosh qotir...



KO'CHA YUZIDAGI MAKTAB

Poytaxtimiz ko'chalari kundan-kunga kengayib, chiroy ochib bormoqda. Bu esa o'z navbatida transport qatnovi uchun qulay sharoit yaratayapti. Ammo yangi ko'chalar barpo etilayotganligi bois, maktab va bog'chalar shundoqqina ko'cha yuziga chiqib qolmoqda. Masalan: serqatnov Sog'bon ko'chasida 24- va 11- maktablar joylashgan. Chorsu bozoridan chiqib kelgan mashinalar bir-birini quvib, 24- maktab yonidagi svetoforga e'tibor berishmaydi.


11-maktab oldida svetofor ham yo'q. Qorasaroy ko'chasida 24- va 28- maktablar joylashgan. 28- maktab yonidagi svetoforga tushunib bo'lmaydi. Chap tomondagi svetofor qizil yonsa, o'ng tomondagisi yashil rangda yonib turadi. Yashil chirog'imiz qachon yonarkin, deb o'quvchilar yo'lni kesib o'tishda ikkilanishayapti.

23- ta'lim maskani yonidagi yashil chiroq ham bir qarasang ishlaydi, bir qarasang umuman ishlaymaydi.

Chig'atoy bozorining oldida joylashgan 111- maktab atrofida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Ko'cha oldida turib olgan nonvoylar mashinalar harakatlanishiga halaqit berishayapti.


Bularga mutasaddi amakilarimiz qachon qarasharkin?..

Ahror AHMEDOV,
talaba.



O'YLAB - TOP!

1. Ildizi yerda, yulduzi ko'kda.
2. O'z-o'ziga go'r kavlar.
3. Men boqsam, u boqar.
4. Bir o'ra, bir o'rada ming o'ra.
5. Boshi oq, qoshi qora.
6. Beli qilday, boshi xumday.
7. Osh pishirdim, tuzi yo'q.
8. Sarig'i uchar, qizili qolar.
9. Uzun terak, soyasi yo'q.
10. Tebranda joni yo'q.
11. Ilon - o'uyasida to'g'ri.



Tuzuvchi: Hilolabonu
HAMROYEVA,
Navoiy shahridagi
11-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

Obuna indeks: 198
TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 11167

Buyurtma N: J 700

Dizayn va sahifalovchi:

Otabek

ESHCHANOV.

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeks: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38

144-38-10

144-21-75

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45